

FRANSUZ TILI VA O'ZBEK TILIDAGI SIFATLARGA OID FARQLAR

Xurramova Farangiz

Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german fakulteti Fransuz tili filologiyasi kafedrasining 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillarida sifatlarning grammatik xususiyatlarini taqqoslangan. Fransuz tilida sifatlarning jins va son bo'yicha o'zgarishi, ularning gapda kelish tartibi va kelishik bilan bog'liq xususiyatlari tahlil qilinadi. O'zbek tilida esa sifatlarning nisbatan barqarorligi, ot oldidan kelishi va shakl jihatdan o'zgarmasligi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, har ikkala tilning sifatlari tizimidagi umumiylik va farqlar misollar orqali tahlil qilinadi. Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tilining grammatik tuzilishini o'rganayotgan talabalar va tarjimonlar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sifatlar, solishtirish, tub, yasama, ot, fransuz tili, o'zbek tili, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.

Sifat – bu otning belgisi, holati, miqdori yoki boshqa xususiyatlarini ifodalovchi so'z turkumi hisoblanadi. U qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladi. Sifatlar har ikkala tilda ham otning belgisini, xususiyatini ifodalovchi so'z turkumidir. Biroq ularning grammatik xususiyatlari va ishlatilish tartibida muhim farqlar mavjud. Sifatlarning asosiy xususiyatlari belgini bildiradi ya'ni, predmetning rangini, hajmini, holatini, shaklini ifodalaydi.

Masalan: katta uy, mehnatkash qiz, yashil olma.

Bunga qo'shimcha qilish kerakki, ot bilan bog'lanadi. Ot oldidan kelib, uni tavsiflaydi.

Masalan: shirin meva, qizil mashina.

Solishtirish darajalari ham bor va ko'p tillarda sifatlarning solishtirish shakllari mavjud.

Masalan:

*Oddiy; chiroyli

*Qiyosiy; chiroyliroq

*Ortuvchi; Eng chiroyli

Mustaqil yoki yasama shaklda ham bo'lishi mumkin ya'ni tub va yasama bo'lishi mumkin.

Masalan:



*Tub; oq, yaxshi

*Yasama; ochiqko'k, suvdek tiniq

O'zbek tilida sifatlar quyidagi hollarda uchraydi. Sifat doimo ot oldidan qo'llaniladi.

Masalan: Katta bino

Otda o'zgarish qilmaydi. Jins va son ta'sir qilmaydi.

Masalan:

Bir qizil gul- bir nechta qizil gul

Gapning ichida o'rni qat'iy qo'llaniladi. Sifat odatda otning oldidan keladi.

Masalan:

Yangi kitob

Fransuz tilida sifatlar kelib chiqishiga ko'ra oddiy sifatlar va hosila sifatlarga bo'linadi.

Oddiy sifatlar > grand, petit, belle

Hosila sifatlar > heureux (baxtli), dangereuse (xavfli)

O'zbek tilida sifatlarni kelib chiqishi quyidagicha > oddiy sifatlar, hosila sifatlar

Oddiy sifatlar > katta, yaxshi, chiroyli

Hosila sifatlar esa unga qo'shimcha qo'shilishi >

Masalan > bilimdon, botirlik

Fransuz hamda o'zbek tilining jins va sonda kategoriyasi quyidagi hollarda kuzatiladi.

Fransuz tilida sifatlar otning jinsiga (masculin, feminin) va soniga (singulier, pluriel) da moslashadi.

Masalan > Un homme intelligent (Aqlli erkak)

Une femme intelligente (Aqlli ayol)

O'zbek tilida jins kategoriyasi mavjud emas.

Sifatlar birlik va ko'plikdagi otlar bilan ishlatilganda o'zgartirishlarsiz qoladi.

Masalan >

Yaxshi bola > yaxshi bolalar

Katta uy > katta uylar

Fransuz tilida sifatning otlashuvi quyida holatlarda kuzatiladi.

Sifatlar mustaqil holda ot vazifasini bajara oladi.

Masalan;

Le riche et le pauvre.

(boy va kambag'al)

O'zbek tilida ham sifatlar otlashgan holda keladi. Bu jarayon quyidagi holatlarda kuzatiladi.

Masalan;

Yaxshilar doim g'olib bo'ladi.

(Ushbu gapda „ yaxshilar ” sifati otlashgan.)

Fransuz tilida sifatlarning qo'llanilishi quyidagicha bo'ladi. Sifat ba'zan oldindan, ba'zan esa otning ortidan keladi.

Masalan: une belle maison – chiroyli uy > oldin

Une voiture rouge – qizil mashina > keyin

Fransuz tilida sifat jins va son bo'yicha o'zgaradi.

Masalan: un garçon intelligent – aqlli bola

Une fille intelligente – aqlli qiz

Solishtirish darajalariga ega.

Le degree simple : grand (katta)

Le degree comparative : plus grand (katta + roq)

Le degree superlative : le plus grand (eng katta)

Sifatlarning yana bir jihatlari mavjudki, fransuz tilida qo'rquv konseptiga tegishli ot va fe'llar bilan monomorfemik bo'lgan sifatlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin.

1. Qo'rquvni his qilish ma'nosini anglatadigan passiv, nokauzativ sifatlari.

2. Qo'rquvga sabab ma'nosini anglatadigan aktiv, kuzatuv.

1 – guruhga anxieux (g'amgin), appréhensif (qo'rqq), craintif (jur'atsiz) , inquiet (jonsarak), peureux (yuraksiz), timide (tortinchoq) sifatlari hamda affolé (jinni), apeuré (qo'rqitmoq), effrayé (qo'rquv), angoissé (tashvishli), alarmé (xavotirlik), épouvanté (dahshat), intimidé (xijolat qilmoq) kabi o'tgan zamon sifatdoshlari (participe passé) kiradi.

2 – guruhga – eux, - able, - ible qo'shimchasi yordamida yasalgan affreux (qo'rqinchli), effroyable (dahshatli), épouvantable (vahimali), horrible (qo'rqinchli), terrible (dahshatli), redoutable (dahshatli) kabi fe'lning hozirgi zamon (participe présent) sifatdoshlari shakli kiritilgan.

Ikki til o'rtasigai farq shundaki, fransuz tilidagi qo'rquv konsepti otlari parallel ravishda ko'p sonli sifatlarga egadir: terrible, affreux, horrible, épouvantable, effroyable, o'zbek tilida bo'lsa sifatlari asosan -li qo'shimchasi yordamida yasalgan vahimali, dahshatli, tahlikali kabi so'zlar va -gan, - qan qo'shimchali qo'rqqan, vahimaga tushgan, xavotirlangan kabi fe'lning sifatdosh shakllaridan tashkil topgan.

Sifatlarning grammatik kategoriyalari:

Sifatlarning grammatik vazifalari;

Sifatlari nutqda asosan otlarni ta'riflash uchun xizmat qiladi. Ular otlarning qanday ekanligini, qanday sifatga ega ekanligini ko'rsatadi. Sifatlarning bir qismi nutqda otlarning o'rnini bosishi mumkin, ya'ni ular predmet, to'ldiruvchi yoki hol vazifasida kelishi mumkin.

Sifatlarning nisbiy kategoriyalari > sifatni nisbiy va mutlaq ekanligini bildiradi.

Mutlaq sifatlar : oq, katta, shirin

Nisbiy sifatlar : daryo bo'yi (daryoga nisbatan), temir eshik (temirdan yasalgan)

O'zbek tilida va fransuz tilida egalik kategoriyasi quyidagicha >

O'zbek tilida sifatlar egalik qo'shimchasini olmaydi. Sifatning o'zi egaga bog'liq ravishda o'zgarmaydi. Sifat + ot birikmalari ko'rinishida qo'shimcha qabul qilinishi mumkin.

Masalan ; Mening katta uyim, (katta – sifat, uyim – egalik shaklidagi ot)

Fransuz tilida bo'lsa , sifatlar egalikni bildiruvchi so'z bilan moslashishi mumkin. Egalik ko'rsatkichlari esa egalikka tegishli olmoshlar yoki artikllar orqali ifodalanadi. Fransuz tilida egalik olmoshlari (mon, ton, son, notre, votre, leur) sifatlardan oldin kelib, egalikka ishora qiladi.

Mon beau frère (Mening kelishgan akam)

Ta jolie soeur (Sening chiroyli opang)

Leur grande maison (Ularning katta uyi)

Sifatning ot sifatida ishlatilishi (Substantivation du adjectif)

Sifat ba'zida egalik olmoshlari bilan mustaqil ot sifatida ishlatilishi mumkin.

Le mien est plus beau. (Meniki chiroyliroq)

Les tiens sont plus meilleurs (Senikilari yaxshiroq)

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, fransuz tili va o'zbek tillaridagi sifatlarning grammatik xususiyatlari har ikkala tilning o'ziga xos taraqqiyot yo'li va lingvistik tamoyillarini aks ettiradi. O'zbek tili analitik tuzilishga ega bo'lib, sifatlar doimiy shaklda qoladi va otning oldida keladi. Fransuz tilida esa sintetik xususiyatlar ko'zga tashlanib, sifatlar jins va son bo'yicha o'zgarish va gap tarkibida turli o'rinlarda kelishi bilan ajralib turadi. Ushbu farqlar har ikkala tilda fikrni ifodalash va gap qurish usullariga ta'sir qiladi. O'zbek tilidagi sifatlar sodda va bevosita ifodalansa, fransuz tilida ular ot bilan grammatik bog'lanishga ega. Ushbu o'ziga xos jihatlarni tarjima jarayonida va til o'rganishda e'tiborga olinishi lozim. Ikkala til tizimini chuqur o'rganish orqali ularning tuzilishi va mantiqiy asoslarini yaxshi tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Davletov K, (2024), Fransuz va o'zbek tillarida qo'rquv konseptiga kiruvchi sifatlar tasnifi.
2. Hojiev A. (1985), Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.
- 3.O'zbek tili grammatikasi.
- 4.Fransuz tili grammatikasi
- 5.Wikipedia
- 6.Geogle